

## PIYOZ NAVLARINI YETISHTIRISH AGROTEXNIKASI VA URUG`CHILIGINI TASHKIL ETISH

**Solijonov Shaxboz Zafarjon o'g'li**

Andijon qishloq xo'jalik va agrotexnologiyalar instituti asissenti

**G'aybullayeva Mohinabonu Hayrullayevna**

**Bozorboyeva Shodiyaxon Ozodjon qizi**

**Murodjonova Husnidabonu Sirojjiddin qizi**

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabalari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7235184>

**Annotatsiya.** Maqolada, piyoz navlarining qisqacha agrotexnikasi va urug`chiligi keltirilgan. Eng yuqori hosil bergan piyozning Volf F1navini ishlab hiqarishda ekishga tavsiya etilgan.

**Kalit so'zlar:** piyoz, urug`chilik, hosildorlik, tajriba, tuproq, o`simlik, barglar soni, bir meva vazni.

## ОРГАНИЗАЦИЯ АГРОТЕХНИКИ И СЕМЕНОВОДСТВА СОРТОВ ЛУКА РЕПЧАТОГО

**Аннотация.** В статье, представлена агротехника и семеноводство сортов лука, рекомендованных к посеву при производстве сорта лука Вольф F1, дающего самый высокий урожай.

**Ключевые слова:** лук, семена, урожайность, опыт, почва, растение, количество листьев, вес одного плода.

## ORGANIZATION OF AGROTECHNICS AND SEED PRODUCTION OF ONION VARIETIES

**Abstract:** The article presents agrotechnics and seed production of onion varieties recommended for sowing in the production of the Wolf F1 onion variety, which gives the highest yield.

**Keywords:** onion, seeds, yield, experience, soil, plant, number of stems, weight of one fruit.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakteristik strategiyasi bu borada, muhim dasturu amaldir. Mazkur hujjatga asosan, 2021 yilga qadar tuproq unumdorligi nisbatan past, suv ta'minoti og'ir, past rentabelli paxta va g'alla ekin maydonlarini bosqichma bosqich qisqartirish orqali, ular o'rniga meva-sabzavot, dukkakli-don, kartoshka, moyli va boshqa ozuqabop ekinlarni joylashtirish, ko'plab dolzarb vazifalarni ham-jihatlikda, ma'suliyat bilan belgilangan muddatlarda ado etmog'imiz lozim. Respublikamizda sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarini yetishtirish bilan shug'ullanuvchi dexqon, fermer xamda mutaxassislarining asosiy maqsad va vazifalari xar gektar sug'oriladigan yerdan olinadigan sabzavot, poliz, kartoshka mahsulotlari miqdorini yuqori va sifatli xosil yetishtirish xisobiga keskin oshirishdan iborat [1]. Sabzavot mahsulotlarining oziq-ovqatlik qiymati bebahodir. Ularda turli tuman organik va mineral moddalarning borligini ta'kidlash bilan birga dorivorlik xususiyatini ham qayd etish lozim [2,3].

## METOD VA METODOLOGIYA

Shundan kelib chiqib, biz ushbu magestirlik ishini bajarish jarayonida O'zbekiston sharoitida eng keng foydalaniladigan sabzavot mahsulotlaridan piyoz agrotexnikasini takomillashtirib o'rganish bilan eng maqbul variantlarini ishlab chiqarishga tavsiya etish maqsad va vazifa qilib qo'yildi. Bunda variantlarga har xil o'g'itlash va go'ng miqdori bo'yicha o'rganildi. Yuqori natija qayd etgan variantlar ishlab chiqarishga joriy etildi. Andijon viloyatining tuproq – iqlim sharoitida tajriba qo'yishdan oldin tuproqqa dastlabki agrokimyoviy tavsif berildi.

## **TADVIQOT NATIJASI VA MUHOKAMA**

Tajriba maydonidan belgilangan kesimida tuproq namunalari olish va bu tuproq namunalari tarkibida chirindi, yalpi azot, umumiy fosfor, tuproqdagi ozuqa elementlarini harakatchan formalaridan nitratli va ammoniyli azot, harakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy miqdorlarini aniqlandi. Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining tajriba maydonida 2020-2021 yillarda piyozning Pantera, Qora tol, Dalton, Volf F1 navlari ekildi. Andijon viloyatining o'tloqi tuproqlari sharoitida piyozning duragay va maxalliy navlarini turli o'g'itlash va go'ng solish me'yorida o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'siri ilk bor o'rganildi. Yuqori hosil bergan variantlar ishlab chiqarishga tavsiya etildi. Dala tajribalari Andijon viloyatining Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari institutining tajriba xo'jaligida o'tkazildi. Tajriba dalasi o'tloqi tuproqlardan iborat, o'rtacha qumoq mehanik tarkibli, qadimdan sug'oriladi, sho'rlanmagan. Sizot suvlari yer yuzasidan 1,5-2,0 m chuqurlikda joylashgan. Tuproq xaydov qatlamidagi chirindi miqdori 0,8-1,0 %, xajm og'irligi 1,35-1,38 g/sm.

### **Piyozning asosiy biometrik-xo'jalik kursatgichlari va hosildorligi.**

Tajriba xo'jaligining tuproq sharoiti va iqlimi Andijon viloyatining o'tloqi tuproqlari mintaqasiga mos keladi. Tajribadagi har bir bo'lakcha uzunligi 10 m, bo'lib, 1 yarusda, 4 qaytariqda joylashtirildi. Jami 4 variantni tashkil qildi. Piyozdan yuqori ildizmeva hosili gektariga 200-250 kg azotni 150 kg fosforli va 100 kg kaliyli o'g'itlar qo'llanilganda olindi, ayniqsa azotli+fosforli+kaliyli o'g'itlar nisbati to'g'ri qo'llaganda nazoratga nisbatan 4-variant 5,5 tonna gektariga qo'shimcha hosil berdi. Tajribada o'rganish uchun bir necha piyoz navlari ekilib ularni maxsuldorligi hisoblangandi. Ma'lumotlarga asosan eng yuqori maxsuldorlik 4-variantda ekanligi aniqlandi. Bu variantdagi Volf F1 duragay piyoz navi nazorat navgiga nisbatan 5,5 tonna qo'shimcha hosil berdi, 4-variantda hosildorlik nazoratga nisbatan 5,5 tonnaga yuqoriligi aniqlanib, navlar va variantlar o'rtasida yuqori ko'rsatkich berdi. Piyoz navlaridan urug'lik tayyorlanganda ham shu variantdagi Volf F1 duragay piyoz navidan eng ko'p urug'lik eg'ishtirib olindi.

## **XULOSA**

**Xulosa,** piyozdan yuqori ildizmeva hosili gektariga 200-250 kg azotni 150 kg fosforli va 100 kg kaliyli o'g'itlar qo'llanilganda olindi, ayniqsa azotli+fosforli+kaliyli o'g'itlar nisbati to'g'ri qo'llaganda nazoratga nisbatan 4-variant 5,5 tonna gektariga qo'shimcha hosil berdi.

### **Ishlab chiqarishga tavsiyalar.**

1. Yuqori hosil beruvchi Volif F1 duragay piyoz navini ishlab chiqarishda ekishga tavsiya etiladi.
2. Piyozdan yuqori, ildizmeva hosil olish uchun o'tloqi tuproqlar sharoitida

gektariga sof holda 200 kg azot, 150 kg fosfor va 75 kg kali o`g`itlar qo`llash tavsiya etiladi.

## REFERENCES

1. 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishlari bo`yicha "HARAKATLAR STRATEGIYASI". Toshkent, 2017.
2. Azimov B. J. "Sabzavot ekinlarining biologiyasi" MM. T.: ToshDAU, 2000 yil.